

ASTRONOMIYA FANINI O'QITISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI

Jumanov Anvar Alisherovich

Azimova Gulsum Tolibovna

Ibotov O'ktamjon Navro'zovich

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU akademik litsey

Annotatsiya: Ushbu ishda akademik litseylarning astranomiya darslarda keng foydalanish mumkin bo'lgan mustaqil ta'lkim shakllari haqida fikr yuritilgan. Mualliflar jamoasi tomonidan astranomiya darslarida mustaqil ishlarni tashkillashtirish metodikasi va turlari haqida g'oyalarni ilgari surgan.

Kalit so'zlar: Mustaqil ta'lism, astranomiya darsi, akademik litsey, ta'lim shakllari, o'quv materiallari.

Astronomiya fanini o'qitishdagi asosiy muammolardan biri murakkab astronomik hodisalar va jarayonlarni o'quvchilar ongiga singdira bilishdir. O'quvchi ongida to'g'ri va aniq tasavvur hosil qila olish esa, o'qituvchi – ustozning mahoratiga bog'liqdir. Akademik litseylarda mustaqil ta'lism o'quv jarayonida o'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etish va boshqarish, zarur bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishda, o'z-o'zini anglashida o'ziga xos vositasidir. Mustaqil ta'lism – ta'lism muvaffaqiyatining asosiy ko'rsatkichi bo'lib u o'rganish jarayonida ham, o'qitishning natijalarida ham muhim ko'rsatkichdir [1-3]. "Mustaqil ta'lism" tushunchasining o'zi keng ko'lamli tushuncha va yo'naliislarni nazarda tutadi. Mustaqil ta'lism tushunchasi qanday qo'llanishiga qarab o'ziga xos manoni anglatadi.

Mustaqil ta'lism – o'qituvchi tomonidan sinfda batafsil bayon qilingan materiallar asosida va batafsil namoyish etilgan metodikadan foydalangan holda uy vazifasining yozma, og'zaki va tajriba shakldagi variantda tayyorlash jarayonidir.

Mustaqil ta'limming asosiy maqsadi sinfdagi darslarda olingan bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishdir: alohida iste'dodli o'quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishdir[4].


Akademik litseylarda barcha fanlarni o'qitishda mashg'ulotning "mustaqil ta'lism" shaklidan foydalaniladi. Davlat ta'lism standartlari va dasturi asosida tuzilgan dars jadvali bo'yicha uyushtirilmagan, alohida olingan auditoriyaning barcha o'quvchilari faol ishtiroy etadigan, o'z ixtiyori bilan tashkil topgan "o'rganuvchilar jamoasi" bilan o'qituvchining o'quv maqsadiga yo'naltirilgan mashg'uloti mustaqil ta'lism deyiladi [5-7].

Mustaqil ta'linda yangi materialni bayon etish, uni mustahkamlash, o'tilgan materialni so'rash kabi an'anaviy usullardan yoki seminarlarda doklad qilish, dokladni muhokama qilish, referat yoki doklad yozish, eksperimental masalalar echish, laboratoriya ishlarni bajarish, mustaqil holda izlanish ishlari olib borish, mustaqil holda kitob ustida ishslash usullaridan foydalanish mumkin [8].

Hozirgi kunlarda mustaqil ta'limi juda kam uyushtirilayotganiga olib keluvchi ma'lum muammolarning mavjudligidir:

- talabalarning astronomiya faniga qiziqishining sustligi;
- mustaqil ta'lism amalga oshirish uchun sharoitning pasayganligi;

- tashabbus va fidoyilikni adolat bilan etirof etilmasligi.
 Mustaqil ta'limni uyushtirishdagi mavjud muammolar ijobiy hal etilib, ushbu mashg'ulotlarni amalga oshirishda o'quv vositalari va axborot texnologiyalaridan keng foydalanib, pedagogik texnologiya usullari yordamida ishlab chiqilgan mashg'ulotlar samaradorligi kafolatlanadi.



O'quv materialllarini chuqur o'zlashtirishda barcha tabiat fanlaridagi kabi astronomiyada ham amaliy mashg'ulotlarning roli alohida ahamiyat kasb etadi [9]. Astronomiyada amaliy mashg'ulotning asosan ikki turi mavjud bo'lib, birinchisi osmon jismlari va ular bilan bog'liq hodisalarni kuzatish bo'lsa, ikkinchisi, osmon jismlarning fizik tabiati, ularning haqiqiy va ko'rinma harakatlari bilan bog'liq bo'lgan masalalarni yechishni tashkil qiladi. O'quvchilar tomonidan predmet materialllarini yaxshi o'zlashtirilganligi, ularning amaliy mashg'ulotlarni bajarish qobiliyatlarida, ayniqsa, masalalar yechish jarayonida yaqqol seziladi.

Xulosa. Mustaqil ta'lim o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismidir. Buni o'qituvchining bevosita yoki bilvosita rahbarligi ostida olib boriladigan mashg'ulotlarni tashkil etish shakli sifatida ko'rib chiqish tavsiya etiladi. Mustaqil ta'limni bajarish davomida bolalar bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish uchun turli xil vazifalarni asosan yoki to'liq mustaqil ravishda bajaradilar. Mustaqillikning rivojlanishi o'quvchilarning ta'lim faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. O'quvchilarning mustaqil ta'limlaridan maqbul foydalanish fizika darsida umumiy akademik bilimlarni va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli shakllantirishga va ijodiy shaxsni tarbiyalashda yordam beradi. Har xil turlardan foydalanish mustaqil ta'lim o'qituvchiga bilim darajasini oshirishga yordam beradi o'qituvchining, yangi materialni o'rganishda ham, o'rganilgan narsalarni mustahkamlashda ham bilim faoliyatini faollashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. X.N.Karimov, A.E.Imamov, E.Z.Imamov, //Development of creative thinking in higher education// «Science and innovation» international scientific journal. (<https://zenodo.org/doi/10.5281/zenodo.7650805>)

2. X.N.Karimov. // Fizika fanini o'qitishda virtual laboratoriya ishidan foydalanish // "Yosh olimlar, doktarantlar va tadqiqotchilarning onlayn ilmiy-forumi" materiallar to'plami. -P. 102-104 (https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=i5SoNTcAAAAJ&pagesize=80&citation_for_view=i5SoNTcAAAAJ:qxL8FJ1GzNcC).
3. X.N.Karimov, M.M.Asfandiyorov, M.A.Axmakov. // Zamonaviy yondashuvlar asosida fizika o'qitishni rivojlantirish // "Yosh olimlar, doktarantlar va tadqiqotchilarning onlayn ilmiy-forumi" materiallar to'plami. 2023. -P. 113-115.
4. E.Z.Imamov, Kh.N.Karimov, S.SXalilov, A.E.Imamov. // The future belongs to learning with an active process of self-education of students // // "Science and innovation" international scientific journal. Volume 1 Issue 5. 2022. -C. 479-482. (<https://scientists.uz/view.php?id=1272>)
5. Э.З.Имамов Х.Н.Каримов, С.С.Халилов, А.Э.Имамов. // Будущее за обучением с активным процессом самообразования студентов // "Science and innovation" international scientific journal. (ISSN: 2181-3337) 2022. № 5. -C. 479-482. (<http://scientists.uz/uploads/202205/B-102.pdf>)
6. B.B.Turdiqulov, O'S.Nazirov, Yu.N.Karimov. // Atom va molekulalarning yorug'likni yutishi va nurlanishi // UIF = 8.1 | SJIF = 5.685. 2022. -C. 1252-1258. (https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=HF_xJoAAAAJ&citation_for_view=HF_xJoAAAAJ:u5HHmVD_uO8C)
7. X.Sh.Asadova, Yu.N.Karimov. // Effective organization of the educational process based on new modern technologies // "Science and innovation" international scientific journal. Volume 1 Issue 7. 2022. -S. 230-233. (https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=HF_xJoAAAAJ&citation_for_view=HF_xJoAAAAJ:2osOgNQ5qMEC).
8. Kh.N.Karimov. // Methods of self-education in teaching students physics using ict-information and computer technologies // "Galaxy international Interdisciplinary Research Journal", 11(2), -C. 471-475. (<https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/4889>).
9. Axmadov M. // Pedagogik dasturiy vositalar yordamida fizika fanini o 'qitish // Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 90-92. (https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Tl5hqLkA AAAJ&citation_for_view=Tl5hqLkAAAAJ:dhpJJ7xvgBgC)